



**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA MAQOLLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Saparbaeva Zarina

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslari davomida xalq og'zaki ijodidan, maqollardan keng foydalanish og'zaki va yozma nutqning o'sishidagi o'rni haqida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, qofiya, g'oyaviy mazmun.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dunyoviy bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o'qish darslari davomida ham o'rgatib boriladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodidan, maqollar, tez aytishlar, topishmoqlarni o'rgatish katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi. Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shning uchun ham ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta'sir etishda samarali natija ko'rsatishga qodir.

Maqol-xalq og'zaki ijodining juda ihcham, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida yuzaga keladi. Maqollar o'zlarining ijtimoiy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim xollardagina ba'zi ijtimoiy guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham maqollarning tematik ko'lamni juda keng bo'lib, bu ko'lamni juz'iy, hayotiy voqelik bilan chegaralab bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotning hech bir sohasi yo'qki, u maqol janrida aks etmagan bo'lsin. Umumiyroq qilib aytganda, maqol ham makoniy, ham zamoniyl jihatdan voqelikdagi har qanday sabab-oqibat munosabatlarini o'zida to'liq aks ettiradi. Maqollar fikrni lo'nda, aniq ifodalashda o'quvchining nutqi uchun juda zarur bo'lgan vosita hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy salmoq, o'ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda. Maqol xalq hayotini, maishiy turmushini, dunyoqarashi va intilishlarini ko'p asrlik tajribalarini aks ettirishi orqali katta g'oyaviy tarbiyaviy maqsadni ko'zlash jihatidan eng faol janr hisoblanadi.



Uning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, maqolda aks etgan voqea va hodisa asosida shu voqea yoki hodisaga nisbatan izchil munosabat, yo tasdiq yo inkor yotadi. Demak, u yoki bu maqolni eshitgan kishida albatta, u yoki bu voqea hodisa yoki narsaga nisbatan aniq munosabat yuzaga keladi.

Xalq maqollari asosan, hayotdan, ayniqsa, mamlakatimizda keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar bilan bog'lanib keladi. Maqollar orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlantiriladi. Eslab qolish qobiliyati ya'ni, xotirasi tiklanadi, bilim, ko'nikma va malakasi oshiriladi.

Maqollar orqali o'quvchilar ongiga o'tmishdagi ajdodlarimizni urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini chuqur singdiriladi. Maqollar o'quvchilarda Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ota-onaga nisbatan hurmat va muhabbat kabi muqaddas tuyg'ularni shakllantiradi. Shuningdek, ular do'stlikka, halollik va to'g'rilikka, sixat-salomatlikka, yaxshilikka, ilm va hunarga, mehnatsevarlikka o'rgatadi.

Maqollar ko'pincha qofiyalangan yoki radivli qofiyalar bilan ta'minlangan bo'ladi. Ba'zan esa tovushlar uyg'unligi zaminida ohangdoshlashtiriladi. Bu ayni vaqtda ularning esda qolishini osonlashtiradi. O'zbek tili maqollarga juda boy. Bu maqollar asrlar qanotida avloddan avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, sayqal topib, yana jilolanib bizning davrimizgacha yetib kelgan. O'zbek xalq maqollardan namunalar:

«Bugungi ishingni ertanga qo'yma»;

«Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqmoq kerak»;

«Odam Vatanni sevar, bulbul chamanni», degan maqollar ham borki, bular bilan: Baxt-tilakda emas, bilakda. «Kishining baxti-bel, bilaging bilan baxtga erisholmaysan, bilagingni ishga sol, mehnat qil», demoqchi bo'ladilar. Birni kessang o'nni ek. Xalqimizning bu va bu singari bir turkum maqollarida ko'chat ekish, bog' qilishga targ'ib etiladi: «Bir daraxtdan o'n bo'lur, o'ntasidan-o'rmon»; «bir tup tok eksang, bir tup tol ek», «Bog'bonning tol ekkani-o'ziga nom ekkani».

Xalq og'zaki ijodiyotida bolalar intizomi, ma'suliyatining dastlabki saboqlarini oladilar. Mavjud tartibga bo'ysunadilar. Biroq bu ham bolalarning mustaqilligi va tashabbusi, ongining o'sishiga aslo monelik qilmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida maqolni quruq o'zigina keltirilmasdan, balki unga mos rivoyat va ertaklar beriladi. Masalan 4-sinf "O'qish



kitobi”da “Tuz haqi” hikoyasini olaylik. Hikoya o‘qib bo‘lingach, savol va topshiriqlar bilan ishlanadi. Uchinchi savolda bunday deyilgan:

-Tuzning tabarrukligi to‘g‘risida qanday maqollarni bilasiz?

Bir kun tuz totgan joyinga qirq kun salom ber,

Tuzini yeb tuzlig‘iga tupirma va boshqalar. 3-sinf “O‘qish kitobida”da Farhod Musajonovning "Yaxshilik" hikoyasi berilgan. Bola uni o‘qib,”Yaxshilik yerda qolmas”,“Yaxshi niyat–yarim davlat“, ”Yaxshidan bog‘ qoladi-yomondan dog“, “Yaxshiga yondoshsang, yetarsan murodga, yomonga yondoshsang qolarsan uyatga “, “ Yaxshi oshini yer, yomon boshini”, “Yaxshi suydirar yomon so‘ndirar“, “Yaxshi sharofatli, yomon kasofatli“ , “Yaxshida gina bo‘lmas, yomondan gina ketmas“, “Yomon bola ko‘zidan , bilinadi yaxshi bola so‘zidan”, “Yaxshi bo‘lsa bola, yomon bo‘lsa balo” kabi maqollar bilan tanishadilar va ma’nosini tushinib yetadilar. Adabiyot namoyondalari ham o‘z mulohazalarini aniq va ihcham ifodalab maqollardek serma’no hikmatlardan keng va o‘rinli foydalana bilganlar. Boshlang‘ich ta’limda 2-sinf o‘quvchilari “Navoiy hikmatlari”ni o‘rganadilar. Masalan: “ Olanndan g‘amsiz o‘tay desang, ilmu hunar o‘rgan “, “Sabr bila ko‘p bog‘liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko‘p toyilur”. Maqollar va hikmatli so‘zlar ikkinchi , uchinchi, to‘rtinchi sinf “O‘qish kitobi” da mavzularni yakunlovchi, uning g‘oyaviy mazmunini o‘qivchi xotirasida uzoq saqlovchi janr sifatida berilgan. Undan tashqari 3-sinf o‘quvchilari, “Xalq og‘zaki ijodi “ ruknida berilgan do‘stlik, ahillik, ilm –fan va hunar haqidagi xalq maqollarini o‘rganadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodidan foydalangan holda o‘quvchilarga mustaqil topshiriq berish ularning mavzuni keng qamrovli o‘zlashtirishlariga imkon yaratadi. Bundan tashqari, shu tarzda tashkil etilgan darslar qiziqarli va samarali bo‘ladi. Qolaversa, dars jarayonida manbalarda mavjud bo‘lgan va o‘qituvchi tomonidan saralab olinib, o‘quvchilarga foydalanishlari uchun tavsiya etilgan ma’lumotlardan izchil foydalanish, o‘quvchilar ijodiy tafakkurining shakllanishi va dunyoqarashining kengayishiga yaqindan yordam beradi.Xalq maqollarini yod olish o‘quvchilar tafakkurini o‘stiradi,nutqini boyitadi, hayotidagi inkor etib bo‘lmas turmush tajribalarini o‘zlashtirishga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Suyumov, M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi", 2005.
2. M. Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Majmua Toshkent "O'qituvchi", 2006.
3. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultative structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
4. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMİY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабур, (1), 86-89.
5. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
6. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
7. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
8. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
9. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке, 1(1), 172-178.
10. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultative structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.
11. Hasanovna, D. M. (2023). Occurrence of English Verb Predicates in the Functional-Semantic Field. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 518-524.
12. Khasanovna, D. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREDICATIVE CONSTRUCTIONS (In the example of the English language). Academia Repository, 4(10), 225-232.
13. Давлатова, М. Х. (2022). NUTQ TUZILMALARI MAZMUNIDAGI SEMANTIKA VA PRAGMATIKANING MUNOSABATI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(5).



14. Davlatova, M. X. (2015). The role of Songs in learning English. Journal. MolodoyUchyoniy, 10, 90.
15. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. Вестник Таджикского национального университета, (3-6), 237-241.

